



FUQAROLARNING HUQUQ VA MANFAATLARINI HIMOYA QILISHDA BITIMLARNI HAQIQIY EMAS DEB TOPISH TO'G'RISIDAGI ISHLARNI O'ZIGA XOS XUSUSIYATI

Ibratova Feruza Babaqulovna

Toshkent davlat yuridik universitetining
professori, yuridik fanlar nomzodi

Raxmatova Farbina Mirzatillo qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10129944>

Annotatsiya

Ushbu maqolada bitimlar kandy vujudga kelishi va ularni xakikiy yemas deb topish asoslari taxlil etiladi. Shuningdek ushbu maqolada bitimlar tuzish va bu bilan bog'liq bo'lgan muammoli vaziyatlarga misollar joy olgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy-maishiy kelishuvlar, o'z o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlar, nizoli bitimlar, sud amaliyoti.

Abstract

This article analyzes how deals are created and the basis for finding them genuine. This article also includes examples of deal making and problematic situations related to it.

Key words: moral-domestic agreements, agreements invalid by themselves, disputed agreements, court practice.

Jamiyatda insonlar ijtimoiy munosabatga kirishar ekan, ularning o'zaro xatti-harakatlari zamirida hamda moddiy ehtiyojlarini qondirishda bitimlar muhim rol o'ynaydi. Ibtidoiy jamoa tuzimi davrida xam odamlar og'zaki tarzda bir-birlari bilan kelishuvlar tuzishgan. Bitimlar tuzish uzoq tarixdan boshlanib, vaqtlar o'tgan sayin bitim tuzish shartlari odat normalariga aylanib qolgan.

Amaldagi Fuqarolik kodeksida fuqarolik xuquq va burchlarining vujudga kelish asoslaridan biri sifatida bitimlar xam nazarda tutilgan. Bitimlar fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik xuquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish va bekor qilishni nazarda tutadigan harakatlarda namoyon bo'ladi. Aniqroq aytadigan bulsak, bitimlar jismoniy va yuridik shaxslarning ongli, aniq maqsadga qaratilgan, erk-irodasi asosidagi xatti-harakatlari bo'lib, ularni amalga oshirish orqali ular muayyan huquqiy oqibatlarga erishishga intiladilar¹. Masalan, qarzga pul berish qarzga pul bergan shaxsda qarzni qaytarib olish huquqini, qarzni olgan shaxsda esa qarzga olgan pulini yoki ashyolarni qaytarish majburiyatini

¹ Хушбоқова Н. Ф. Қ. БИТИМ ВА УНИНГ ТУРЛАРИ ҲАМДА УНИ ҲАҚИҚИЙ ЭМАС ДЕБ ТОПИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ҲАҚИДА //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 940-948.





vujudga keltiradi². Bitimlar tuzilganda bitim tuzgan tomonlar uchun majburiy ahamiyatga ega bo'lib, qonuniy kuchga kiradi.

Bitimni tuzayotgan sub'ektlar tomonidan ko'zlanayotgan maqsad xamisha huquqiy xususiyatga ega bo'ladi, ya'ni mulk huquqini, muayyan ashyodan foydalanish huquqini qo'lga kiritish va h.k. Shu sababli, huquqiy maqsadni ko'zda tutmaydigan ma'naviy-maishiy kelishuvlar – uchrashuv, sayr qilish tug'risidagi kelishuvlar bitim bo'la olmaydi³.

Sud amalyotida bitimlarga oid ishlarning ko'plab ko'rilayotgani ushbu mavzuning dolzarbligini yana bir karra isbotlab beradi. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarning 2019 yil 9 oydagi statistik ma'lumotlarga yuzlanadigan bo'lsak, hal qiluv qarori da'vo tartibidagi 98 080 ta fuqarolik ishlaridan 24 233 tasi (24,7 %) bitimlar bilan bog'lik ekanligi qayd etilgan. Bundan ko'rinib turibdiki fuqarolik sudlaridagi ishlarni ¼ qismini bitimlarga oid nizoli holatlar tashkil qiladi. Bitimlarni tartibga soluvchi qonun normalarini to'g'ri tatbiq qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega⁴.

Shuni alohida aytib o'tish kerakki, bitimlarning haqiqiy emasligi instituti fuqarolik huquqida muhim rol o'ynaydi, chunki bu jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy yoki shartnomaviy xarakterdagi tuzilgan bitimlarni amalga oshirishda huquqlarning buzilishining oldini olishga imkon beradi⁵. Qonunda belgilangan asoslarga ko'ra sud bitimlarni haqiqiy emas deb hisoblaydi va shunga ko'ra bitimlar ikki turga bo'linadi. Bular: o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlar va nizoli bitimlar hisoblanadi.

O'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitim haqiqiy emasligining oqibatlarini qo'llanish to'g'risidagi talabni har qanday manfaatdor bo'lgan shaxs sudga taqdim etishi mumkin. Sud esa bu talabni o'z tashabbusi bilan qo'llashga haqli. Bitimni haqiqiy emas deb topish haqidagi da'volarni ko'rishda sudlar taraflar o'rtasidagi bitim tuzish to'g'risida kelishuv bo'lganligi, bitim shartlarini to'liq yoki qisman bajarilganligi va bitimni notarial tasdig'i aniqlanib hal qiluv qarorini chiqaradi⁶.

² Ibratova F. TERMS IN CIVIL LAW AND THEIR APPLICATION IN LEGAL PROTECTION OF CITIZENS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.

³ Мусаев К. А. ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИДА БИТИМНИНГ ҲАҚИҚИЙ ЭМАСЛИГИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСПЕКТЛАРИ //ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2021. – Т. 6. – №. 8.

⁴ Ibratova F. LEGAL ISSUES OF MEDIATION ON INDIVIDUAL LABOR DISPUTES //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM.–2022.–2022. – 2022.

⁵ Мусаев К. А. ҚОНУН ҲУЖЖАТЛАРИ ТАЛАБЛАРИГА МУВОФИҚ БЎЛМАГАН БИТИМНИНГ ҲАҚИҚИЙ ЭМАСЛИГИ //ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2020. – Т. 5. – №. 11.

⁶ Babakulovna I. F., Abdurazzakovna T. T. Ibratova FB, Tashbaeva TA Mediation agreement on a labor dispute: theory and practice //Editorial team. – 2021. – Т. 2021. – С. 45.



Umuman olganda bitimni haqiqiy emas deb topishda bitimni elementlariga e'tibor qaratsak amaliy jihatdan bitimni xaqiqiy yoki haqiqiy emasligini aniqlash oson bo'ladi⁷. Yuridik fanlar doktori S.E.Naxlikning fikricha, bitimni elementlari bitimni tuzayotgan shaxslarning qobilyati va ularning erki, bitimning shakli va mazmuni, ya'ni bitimning shartlari yuqoridagi elementlarga mos bo'lishi, qonunda belgilangan shartlarga amal qilgan xolda tuzilishi kerak.

Qonun xujjatlarining talablariga muvofiq bo'lmagan bitimlar – mazmunan qonun hujjatlariga muvofiq kelmasa, shuningdek huquq-tartibot yoki ahloq asoslariga atayin qarshi maqsadlarda tuzilgan bitim o'z-o'zidan haqiqiy emasdir⁸. Fuqarolik qonun xujjatlariga Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari kiradi. Shunday ekan O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining vakolat doirasidan tashqariga chiqqan holda bitim mazmuniga qushicha va o'zgartirishlar kiritilishi taqiqlanadi.

Amaldagi fuqarolik kodeksida huquq-tartibot yoki ahloq asoslariga atayin qarshi tuzilgan bitimlar haqiqiy emas degan norma keltirilgan. Ahloq normalari jamiyatdagi shaxslarning qadriyatlarga bog'liq kundalik hatti-xarakati. Lekin bu yurish-turish qoidasi biror-bir qonunda qat'iy belgilab qo'yilmagan. Bundan ko'rinib turibdiki, bitimlar bilan bog'liq sud amaliyotida ahloq normalariga qarshi maqsadni ko'zlagan bitimlarni haqiqiy emas deb topishda muammolar mavjud⁹. Zamon o'zgargan sayin odamlar talabi ham, jamiyat a'zolarining huquqiy qarashlari xam o'zgarib boradi. Ahloq normalari xar doim ham bir xil bo'lavermagan. Shunday holatlar vujudga kelishini hisobga olib, huquqiy sohadagi ahlok me'yorlarini qonuniy asosini yaratish kerak, deb xisoblayman.

O'n to'rt yoshga to'lmagan shaxs tomonidan tuzilgan bitimlar - bunday bitimlar ham o'z-o'zidan xaqiqiy emas deb topiladi. Agar ikkinchi tarafning muomlaga layoqatsizligi bitim tuzilayotganda birinchi tarafga ayon bo'lgan bo'lsa, birinchi taraf ikkinchi taraf ko'rgan haqiqiy zararni to'lab berishi shart. 14 yoshga to'lmagan shaxslar tomonidan ularning ota-onalari, vasiylari, farzandlikka oluvchilar bitim tuzish huquqiga ega bo'ladi¹⁰.

⁷ Мусаев К. Недействительность сделки и ее основные признаки //Вопросы совершенствования механизмов противодействия коррупционным рискам в сфере государственного управления. – 2022. – Т. 1. – №. 01. – С. 83-89.

⁸ Ibratova F. B. et al. Special features of modern legal systems: cases and collisions. – 2017.

⁹ Babakulovna I. F. Ibratova FB, Yerkebayeva Zh. A. Mediation as an alternative way to resolution of economic disputes //Editorial team.

¹⁰ Мусаев К. Теоретические и практические проблемы признания сделок недействительными //Обзор законодательства Узбекистана. – 2020. – №. 3. – С. 52-55.





Ammo quyidagi bitimlar, xususan mayda maishiy bitimlar, tekin manfaat ko'rishga qaratilgan bitimlar, shuningdek, notarial tasdiqlashni yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlar, boshqa shaxslar tomonidan mablag'ni erkin tasarruf etishga qaratilgan bitimlar bundan mustasno¹¹.

Muomalaga layoqatsiz yoki muomalaga layoqati cheklangan deb topilgan fuqaro tomonidan tuzilgan bitim. Bitim tuzayotgan shaxsning ruhiy va tibbiy holati qay darajada ekanligi bitim tuzish shartlarining muhim belgisidir. Ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqarolar tomonidan tuzilgan bitimlar o'z-o'zidan haqiqiy emas deb topiladi¹². Muomlaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarning vasiylari ularning nomidan bitimni bekor qilish haqida sudga da'vo arizasini kiritish xuquqiga egadir¹³. Shuningdek, spirtli ichimliklarni yoki giyohvand vositalarni suiste'mol qilish oqibatida muomala layoqati cheklangan fuqaro tomonidan homiysining rozilgisiz tuzilgan bitim ham haqiqiy emas deb topiladi. Bundan mayda maishiy bitimlar tuzish mustasnodir.

O'z harakatining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaro tomonidan tuzilgan bitim – fuqaro bitim tuzish paytida o'z harakatlarini ahamiyatini tushuna olmasa va boshqara olmaydigan holatda bo'lsa, bitim haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Shu bitimni tuzgan huquq va manfaatlariga putur etgan fuqaro sudga da'vo arizasini kiritishi mumkin. Fuqaro atrofdagi vaziyatni anglamagan, sodir etgan harakatlarining oqibatini tushuna olmaydigan va ularni boshqara olmaydigan holatda tuzgan bitimlarni haqiqiy deb hisoblash mumkin emas. Bunday holatlarning sabablari turlicha bo'lishi mumkin: kasallik va alkogoldan (narkotik) zaharlanishdan, biror-bir hodisa oqibatidan va h.k. Masalan, mast ahvoldagi odam o'z harakatining mohiyati va oqibatini tushuna olmadi va boshqa tomon bundan foydalandi. Bunday holda, mast bo'lgan shaxs shartnomani bekor qilishi mumkin¹⁴. Chunki bitimning haqiqiy bo'lishi uchun barcha tomonlar bitim tuzish

¹¹ Boboqulovna I. F. et al. NIZOLARNI MUQOBIL HAL QILISH USULI SIFATIDA MEDIATSIYANI HAKAMLIK SUDLARIDA QO'LLASHNING O'ZIGA XOS AHAMIYATI //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 88-95.

¹² Хушбоқова Н. ФУКАРОЛИК ХУҚУКЛАРИНИ ХИМОЯ ҚИЛИШ УСУЛЛАРИ //Involta Scientific Journal. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 191-197.

¹³ Boboqulovna I. F., Shokir o'g'li M. D. NIZONI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA MEDIATSIYA VA HAKAMLIK SUDNING ROLI VA AHAMIYATI //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – T. 3. – №. 25. – C. 196-207.

¹⁴ Boboqulovna I. F., Malika T. YURIDIK SHAXSNI TUGATISH BILAN BOG 'LIQ MASALALARNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 105-109.





qobilyatiga ega bo'lishi kerak. Qonun bo'yicha giyohvand moddalar yoki spirtli ichimliklar ta'siri ostida bo'lgan bitim tuzish qobilyatiga ega deb hisoblanmaydi.

Chunki bitimning haqiqiy bo'lishi uchun barcha tomonlar bitim tuzish qobilyatiga ega bo'lishi kerak. Qonun bo'yicha giyohvand moddalar yoki spirtli ichimliklar ta'siri ostida bo'lgan bitim tuzish qobilyatiga ega deb hisoblanmaydi¹⁵. Shaxsning ma'lum harakatni sodir etish vaqtidagi ruhiy holatini aniqlash lozim bo'lgan barcha hollarda sud-psixiatriya ekspertizasini tayinlanishi tug'risida sud ajrim chiqaradi.

Aldash, zo'rlik, qo'rqitish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi yoki og'ir xolatlar yuz berishi ta'sirida tuzilgan bitim. Agar bitim aldash, zo'rlik, qo'rqitish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatli bitimi, o'zi uchun juda foydasiz shartlar asosidagi og'ir vaziyatlar ta'sirida tuzilgan bo'lsa haqiqiy emas deb topiladi. Ko'rkitish – bu odamga u boshqa hollarda tuza olmaydigan shartnoma tuzish uchun bosim o'tkazishdir. Bu kuch ishlatish orqali bulishi mumkin, masalan, odamni qurol ostida ushlab turish yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilish yoki iqtisodiy usul bilan ham bo'lishi mumkin¹⁶. Masalan, shartnoma imzolashdan bosh tortgan odamni uyini yoqib yuborish bilan taxdid qilish. Boshqacha qilib aytganda, qo'rqitish, zurlik ishlatish oqibatida odamning ruhiy xolatiga ta'sir ko'rsatiladi va odam shartnoma tuzishdan boshqa oqilona tanlov yo'qligini his qiladi. Shuningdek, qo'rqitish xarakati noqonuniy bo'lishi kerak¹⁷. Shaxsga nisbatan fuqarolik da'vosini qo'zg'atish bilan taxdid qilish qo'rqitish emas, chunki da'vo arizasini to'ldirish qonuniy hatti-xarakat hisoblanadi.

¹⁵ Ашурова А. Правовые основы надежной защиты и гарантии прав частной собственности //Обзор законодательства Узбекистана. – 2015. – №. 1. – С. 35-39.

¹⁶ Babakulovna I. F. et al. The Concept and Types of Corporate Disputes: Theory and Practice //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 327-332.

¹⁷ Babakulovna I. F. Mediation as an alternative way to resolution of economic disputes. – 2023.





Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytish lozimki, bitimlarni haqiqiy emas deb topish, huquq-tartibot yoki ahloq asoslarini himoya qilishga hamda fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq va majburiyatlarni bekor qilishga olib keladi, chunki amaliyotda bitimning haqiqiy emasligi qonun buzilishi holatlarini yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida, fuqarolik qonunchiligini takomillashtirishni taqozo etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, hozirgacha bitimlarning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash muammosi bo'yicha yanada har tomonlama o'rganish va tushuntirishlarni talab qiladigan bahsli masalalar mavjuddir.

Adabiyotlar:

1. Хушбоқова Н. Ф. Қ. БИТИМ ВА УНИНГ ТУРЛАРИ ҲАМДА УНИ ҲАҚИҚИЙ ЭМАС ДЕБ ТОПИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ҲАҚИДА //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 940-948.
2. Ibratova F. TERMS IN CIVIL LAW AND THEIR APPLICATION IN LEGAL PROTECTION OF CITIZENS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.
3. Мусаев К. А. ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИДА БИТИМНИНГ ҲАҚИҚИЙ ЭМАСЛИГИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСПЕКТЛАРИ //ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2021. – Т. 6. – №. 8.
4. Ibratova F. LEGAL ISSUES OF MEDIATION ON INDIVIDUAL LABOR DISPUTES //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM.–2022.–2022. – 2022.
5. Мусаев К. А. ҚОНУН ҲУЖЖАТЛАРИ ТАЛАБЛАРИГА МУВОФИҚ БЎЛМАГАН БИТИМНИНГ ҲАҚИҚИЙ ЭМАСЛИГИ //ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2020. – Т. 5. – №. 11.
6. Babakulovna I. F., Abdurazzakovna T. T. Ibratova FB, Tashbaeva TA Mediation agreement on a labor dispute: theory and practice //Editorial team. – 2021. – Т. 2021. – С. 45.
7. Мусаев К. Недействительность сделки и ее основные признаки //Вопросы совершенствования механизмов противодействия коррупционным рискам в сфере государственного управления. – 2022. – Т. 1. – №. 01. – С. 83-89.
8. Ibratova F. B. et al. Special features of modern legal systems: cases and collisions. – 2017.
9. Babakulovna I. F. Ibratova FB, Yerkebayeva Zh. A. Mediation as an alternative way to resolution of economic disputes //Editorial team.
10. Мусаев К. Теоретические и практические проблемы признания сделок недействительными //Обзор законодательства Узбекистана. – 2020. – №. 3. – С. 52-55.





11. Boboqulovna I. F. et al. NIZOLARNI MUQOBIL HAL QILISH USULI SIFATIDA MEDIATSIYANI HAKAMLIK SUDLARIDA QO'LLASHNING O'ZIGA XOS AHAMIYATI //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 88-95.
12. Хушбоқова Н. ФУКАРОЛИК ҲУҚУКЛАРИНИ ХИМОЯ ҚИЛИШ УСУЛЛАРИ //Involta Scientific Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 191-197.
13. Boboqulovna I. F., Shokir o'g'li M. D. NIZONI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA MEDIATSIYA VA HAKAMLIK SUDINING ROLI VA AHAMIYATI //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – Т. 3. – №. 25. – С. 196-207.
14. Boboqulovna I. F., Malika T. YURIDIK SHAXSNI TUGATISH BILAN BOG 'LIQ MASALALARNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 105-109.
15. Ашурова А. Правовые основы надежной защиты и гарантии прав частной собственности //Обзор законодательства Узбекистана. – 2015. – №. 1. – С. 35-39.
16. Babakulovna I. F. et al. The Concept and Types of Corporate Disputes: Theory and Practice //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 327-332.
17. Babakulovna I. F. Mediation as an alternative way to resolution of economic disputes. – 2023.

